



---

**KAMBAG‘ALLIKNI BARTARAF ETISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA  
UNDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10409415>

**Murodullayev Kozimbek G‘anijon o‘g‘li**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi*

*ilmiy rahbar: **Javmanov Jamshed Abdusamatovich***

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti, Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasida assistenti,  
jamshed.abdusamatovich@mail.ru*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada kambag‘allikni bartaraf etish va aholini kambag‘allikdan chiqarishning xorijiy tajribalari tahlil qilingan hamda o‘rganilgan tajribalardan mamlakatimizda foydalanish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar**

kambag‘allik, Head Start, buyuk jamiyat, pragmatizm, qashshoqlik, tashabbus.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется зарубежный опыт ликвидации бедности и вывода населения из бедности, а также рассматриваются пути использования полученного опыта в нашей стране.

**Ключевые слова**

бедность, Head Start, великое общество, прагматизм, инициатива.

**ABSTRACT**

This article analyzes foreign experience in eliminating poverty and lifting the population out of poverty, and also discusses ways to use the experience gained in our country.

**Key words**

poverty, Head Start, great society, pragmatism, poverty, initiative.

Mana uch yildirki kambag‘allikka qarshi kurashish mamlakatimizda o‘ta dolzarb masalalar sirasiga kirib bo‘ldi. Agar inson kambag‘al bo‘lsa, sog‘ligini yo‘qotgan paytda shifokorga uchrashish uchun shaharga qatnashiga, dori-darmonlarni xarid qilishga, shifokor ko‘rigidan o‘tishga, laboratoriya tahlillari va boshqa tashxis qo‘yish uchun qilingan tahlillar uchun to‘lov qilishga imkoniyati



bo'lmaydi. Bunday holatlarda qanday ish tutish kerak? Buning biror chorasi bormi?

Inson kambag'al oilaga mansub bo'lsa, farzandi mutaxassislik bo'yicha ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'lib qolishi mumkin, chunki, bunday o'qishlarning aksariyat qismi pullik bo'lib, to'lov kontrakt asosida amalga oshiriladi. Ushbu holat uning kelajakdagi daromadlari darajasiga ham salbiy ta'sir etadi. Chunki, malakali mehnat bilan malakasiz mehnatning o'rtasidagi daromad topish turli darajada bo'ladi. Bunday aholi qatlami nafaqat aholining o'ziga, balki jamiyatga ham zarar. Kambag'allikka qarshi kurash masalasi global masala bo'lganligi tufayli BMT Bosh Assambleyasi kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha o'n yilliklarni e'lon qilib, tegishli tadbirlarni amalga oshirib kelinmoqda. Birinchi o'n yillik o'z ichiga 1998-2007-yillarni qamrab olgan bo'lsa, ikkinchi o'n yillik 2008-2017-yillarga to'g'ri keldi. Endi esa uchinchi o'n yillikka mo'ljallangan 2018-2027-yillarni qamrab oladigan Rezolyutsiyasi qabul qilindi. Ushbu Rezolyutsiyada oldingi o'n yillikda erishilgan natijalar darajasini saqlab qolgan holda qashshoqlik bilan kurashishni takomillashtirish hamda uni mustahkamlash yo'lida samarali va muvofiqlashtirilgan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgandir. Bunga asosan juda ko'plab mamlakatlar ham qashshoqlikdan butunlay qutilish rejalarini ishlab chiqqan.

Jumladan AQSH, Xitoy, Janubiy Korea, Pokiston, Bangladesh kabi mamlakatlar shu qisqa davrda butunlay kambag'allikdan qutilish rejasini ishlab chiqqan va buni muvaffaqiyat bilan amalga oshirib kelmoqda.

Yetakchi mamlakatlar ham o'zlarining ilk rivojlanish bosqichida mazkur muammoni davlat darajasida kuchlar mobilizatsiyasini ta'minlagan holda, kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali uddalagan. Shu o'rinda ushbu yo'nalishda keskin tarixiy o'zgarishlarni amalga oshirgan davlatlar tajribasini bilan o'rtoqlashsak.

AQSHda o'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida dunyoda katta iqtisodiy kuchga ega AQSHda ham qishloqlarda tibbiyot va ta'lim tizimi keskin orqada bo'lgan. Natijada shaharlar va qishloqlar o'rtasidagi farq keskin kuchayib, kambag'allik darajasi 22 foizdan yuqorini tashkil etgan. Qo'shma Shtatlar o'z kuchlari bilan bu muammoni yechishni uddalay olmagach, davlat resurslarini kompleks jalb qilgan holda kambag'allikka qarshi kurashish yagona yo'l sifatida tan olingan. 1964-yilda AQSHning o'ttiz oltinchi Prezidenti L.Jonsonning tashabbusi bilan "Buyuk jamiyat" dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur dasturda kambag'allikni bartaraf etish, qishloqlarni rivojlantirish, tengsizlikka barham berish va atrof-muhit holatini yaxshilash kabi vazifalar asosiy maqsad sifatida belgilangan. Ta'lim, bandlik va kasbiy tayyorgarlik dasturlarini muvofiqlashtirish uchun Iqtisodiy imkoniyatlar boshqarmasi ta'sis etilgan. Shuningdek, bu boshqarma o'z biznesini yo'lga



qo'yishni istaganlarga imtiyozli kreditlar taqdim etish orqali qishloq joylarda kambag'allikka qarshi kurashgan. Uning mablag'lari qishloq xo'jaligida mehnat qiluvchi migrant ishchilarni uy-joy bilan ta'minlash va ularni o'qitish uchun yo'naltirilgan. Mazkur dasturning muhim qismi bo'lgan, 1965-yilda qabul qilingan "Boshlang'ich va o'rta ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq, birinchi marta hukumat zimmasiga o'quvchilarining aksariyat qismi kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan maktablarga yordam berish majburiyati yuklangan. Boshlang'ich va o'rta maktablarni moliyalashtirish miqdori oshirilib, malakali kadrlar rivojlanishi past bo'lgan hududlarga yo'naltirilgan. Shuningdek, kitob sotib olish va orqada qolayotgan kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun alohida ta'lim dasturlarini yaratishga 1 milliard dollardan ortiq mablag' ajratilgan.

Kam ta'minlangan oilalar farzandlariga birinchi sinfga kelishdan oldin dastlabki zarur ko'nikmalar berishga mo'ljallangan "Head Start" dasturi qabul qilingan. Keyinchalik "Oliy ta'lim to'g'risida"gi qonun imzolanib, u kam ta'minlangan oilalar farzandlariga kollejlarda stipendiyalar va ta'lim kreditlari hisobiga o'qish imkonini bergan.

Natijada 10 yil ichida kambag'allikda yashayotgan amerikaliklar ulushi 20 foizdan 12 foizgacha kamaygan. Shuningdek, 1965-yilda keksalar va kam ta'minlangan oilalar uchun tibbiy sug'urta dasturlari ta'sis etilib, pirovardida barcha keksalar tibbiy yordam olish imkoniga ega bo'lgan va shu orqali ular orasidagi kambag'allik darajasi taxminan 10 foizgacha (bu butun aholi o'rtasidagi kambag'allik darajasidan ancha past) tushgan.

O'sha davrdagi ijtimoiy islohotlar bo'yicha kompleks yondashuv AQSHga rivojlangan va qoloq shtatlarning, shahar va qishloqlar aholisining turmush darajasini tenglashtirish imkonini bergan.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatga aylangan Janubiy Koreyada o'tgan asrning 70-yillarida kambag'allik darajasi o'ta yuqori bo'lgan. Mamlakatning barcha kuchlari sanoatlashtirishga safarbar etilib, qishloqlar qoloqlikka yuz tuta boshlagan. O'sha davrda mamlakat aholisining qariyb 60 foizi qishloqlarda yashagan. 1970-yilda Janubiy Koreya Prezidenti Pak Chon Xi tomonidan "Yangi qishloq uchun harakat" dasturi qabul qilingan.

Dasturning birinchi bosqichida davlat tomonidan har bir qishloqqa rivojlanishini o'zi belgilash imkoni berilib, infratuzilma ob'yektlari qurish uchun qurilish materiallari ajratilgan. Qishloq oqsoqollari fikri asosida bir qishloqda maktab, birida yo'l yoki boshqa ob'yektlar qurilishiga e'tibor qaratilgan. 1972-yilda dasturning birinchi natijalari baholanganda, jami qishloqlarning yarmida, ya'ni 16 ming 600 tasida yangi siyosat muvaffaqiyatli amalga oshirilgani aniqlangan. Bu esa o'sha davrda qishloqlarda oqsoqollarga tayanib ish ko'rishga urinish o'zini oqlamagani bilan izohlanadi. Qishloqlardagi oqsoqollar yangi g'oyalar va



bilimlarga ega bo'lmagani tufayli aholi uchun muhim sohalarni rivojlantirishda ortda qolgan. Qishloqlarning yangi rahbarlarini o'qitish uchun "Qishloqlarda oilalarni mustahkamlash akademiyasi" tuzilgan, keyinchalik u "Yangi qishloq rahbarlari akademiyasi" deb qayta nomlangan. 1972-yili mamlakat Prezidenti huzurida, kotibiyat apparatida "Yangi qishloq uchun mas'ul" lavozimi ta'sis etilgan va hokimiyatning barcha darajasida "Yangi qishloq harakatiga ko'maklashish qo'mitalari" tuzilgan. Bir qator mas'ul vazirliklarda esa "Yangi qishloq" bo'limlari tashkil etilgan. 1974-yilga kelib xususiy korxonalar, jumladan, Chebol moliyaviy-sanoat korporatsiyalari tarkibiga kiradigan korxonalarda "Yangi qishloq harakatiga ko'maklashish qo'mitalari" tashkil etila boshlangan. 1970-yillarning ikkinchi yarmida "Yangi qishloq uchun harakat" umumdavlat harakatiga aylanib, iqtisodiy o'sishning ijtimoiy omillaridan biri hisoblangan.

Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat apparati ishini tashkil etishning aniq vertikasi yo'lga qo'yilgan. Buning natijasida aholining dolzarb muammolari turli darajada muvofiqlashtirilgan tarzda hal qilingan va joylarda mahalliy boshqaruv sifati yaxshilangan. Qishloq aholisini mutaxassislikka o'qitish bo'yicha ta'lim dasturlari joriy qilingan. Qishloqlarga zarur kadrlarni jalb qilish bo'yicha sharoitlar jadallik bilan yaratilgan. 2012-2015-yillarda kvartiralar qurilishi uchun qariyb 14 milliard yuan mablag' ajratilib, ularga 300 ming qishloq o'qituvchisi joylashtirilgan. 1 milliondan ortiq qishloq o'qituvchisiga pul dotatsiyasi berilgan.

Agar 1965-yilda dehqon oilasining o'rtacha daromadi 423 dollarni tashkil etgan bo'lsa, 1971-yilga kelib 1025 dollarga, 1977-yilda esa 2960 dollarga yetgan. Boshqacha aytganda, faqat 12 yil ichida dehqonlarning turmush darajasi taxminan 700 foiz oshgan.

2021-yil 25-fevral kuni XXR raisi Si Szinpin: "Qashshoqlikka qarshi kurashayotgan Xitoy uzil-kesil g'alaba qozondi, so'nggi 8 yilda deyarli 100 million kishi bu botqoqdan chiqarib olindi" - deya e'lon qildi.

Uning so'zlariga ko'ra, qishloqlarda yashovchi 98,99 million aholi so'nggi 8 yilda qashshoqlar safidan chiqarilgan, kambag'al tumanlar ro'yhatini 832 uyezd va 128 mingta qishloq tark etgan. Kambag'allikka qarshi kurashish siyosati boshlangan 1970-yillarning oxirlaridan beri qishloqlarda yashovchi 770 million fuqaro kambag'allar safini tark etgan. Buni uchta asosiy omili mavjud:

Birinchisi, Xitoy kommunistik partiyasining (XKP) kuchli rahbariyati. Xitoy sotsialistik davlat hisoblanadi. 2012-yildan beri hukumat butun mamlakat bo'ylab, 255 000 ta mehnat brigadalarini va 3 mlndan ortiq qishloq xo'jaligi mutaxassislarini tanlab olib, kambag'al hududlarda ishlash uchun "qashshoqlikka qarshi kurash maydoni" ga jo'natdi. Ular eng baland tog'larga chiqishdi, eng xavfli yo'llarni bosib o'tishdi, eng chekka qishloqlarga tashrif buyurishdi, eng kambag'al uylarda yashashdi va odamlarni qashshoqlikni yo'q qilish uchun harakatga undadilar.





Ularga “Men Kommunistik partiya a’zosi sifatida qashshoqlikka kurashishim kerak” - deya o’rgatishdi.

Ikkinchisi, xalq uchun yo’naltirilgan yondoshuvni targ’ib qilish. Partiyaning shiori “Mamlakatni boshqarishning yo’li xalqni boy qilishdan boshlanadi” bo’lib, u hamisha xalq tarafida bo’lib, xalqqa sidqidildan xizmat qilishni, xalq farovonligini samaradorlikning muhim ko’rsatkichi sifatida qabul qilib, kambag’allarning asosiy ehtiyojlarini qondirishga e’tibor qaratadi. So’nggi sakkiz yil ichida hukumat bu yo’nalishga 1,6 trillion yuan investitsiya kiritdi. Qashshoqlikka qarshi kurashish maqsadida mikromoliyalash uchun 710 mlrd. yuan va qayta moliyalash uchun 668,8 mlrd. yuandan ortiq mablag’lar ajratildi. Shuningdek, aholining kam ta’minlangan qatlamlariga manzilli yordam ko’rsatish uchun 9,2 trillion yuan miqdorida moliyaviy kreditlar ajratildi. Hukumat rivojlangan hududlarga kambag’al hududlarni qo’llab-quvvatlashda yordam berdi va hududlardagi kadrlar, kapital va texnologiyalar oqimini muvofiqlashtirdi.

Uchinchidan, boshqaruvning to’g’ri siyosati va tamoyillari. O’zining mahalliy sharoitlaridan kelib chiqqan holda, “xitoycha” xususiyatlari bilan qashshoqlikni kamaytirish yo’lini tanladi:

▪ Kam ta’minlanganlarning g’ayrati, tashabbusi va ijodkorligini ularning ichki motivatsiyasini rag’batlantirish uchun safarbar qilish. Ularga “Qiyinchilik boshqalarni mag’lub etishda emas, balki o’zini mag’lub etishdadir” tamoyili singdirildi. Qashshoqlikdan qutulish uchun “mafkuraviy qashshoqlik”dan xalos bo’lish, xalq ommasiga o’z taqdirini o’z qo’li, sobit irodasi bilan o’zgartirishga e’tibor qaratildi. Hozirda sobiq kambag’allar: “Endi biz kutib, tomosha qilib o’tirmaymiz. Ishlaymiz va biz albatta yaxshi hayotga intilamiz. Hayot meni o’zgartirdi, men esa hayotni o’zgartirdim” ruhida yashaydi.

▪ Maqsadli yordam va rivojlanish yo’li bilan qashshoqlikni bartaraf etish. Yordam oluvchilarni maqsadli boshqarish, resurslarni to’g’ri taqsimlash va aholining kam ta’minlangan qatlamlarini maqsadli qo’llab-quvvatlash, har bir qishloq, har bir oila va har bir inson uchun individual yondashuvlarni amalga oshirish. “Har bir yoshga hayotda o’zini namoyon qilish imkoniyatini berish uchun ta’limga e’tibor bering, shu bilan qashshoqlikning avloddan avlodga o’tishini to’xtating!” siyosati olib borildi.

▪ Haqiqatga intilish va pragmatizm. Qog’ozbozlik, rasmiyatchilik va byurokratizmga qat’iy qarshi kurash olib borildi. Kam ta’minlangan aholining muammolarini hal qilish uchun amaliy yordam uchun barcha choralar ko’rildi.

Qashshoqlik insoniyat jamiyatining surunkali kasalligi bo’lib, global taraqqiyot va boshqaruvga to’sqinlik qiladi. Xitoy islohot va ochiqlik siyosatini boshlaganidan beri 770 million kambag’al odam qashshoqlikdan qutulgan, bu esa hozirgi davrda dunyoning badavlat aholisining 70% dan ortig’ini tashkil etadi.



Xitoy bu natijaga BMTning 2030-yilga qadar qashshoqlikni qisqartirish va barqaror rivojlanish dasturida ko'rsatilgan muddatdan 10 yil oldin erishdi.

Yuqorida amalda ijobiy natijalarga erishgan rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib so'nggi yillarda mamlakatimizda muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan kambag'allikni bartaraf etish yuzasidan qator Farmon va qarorlarni qabul qilindi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni kambag'allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli farmoni va ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Respublikasi "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, o'zini o'zi ish bilan band qilish orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirishga erishish bo'yicha vazifalar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari tug'risida"gi PF-5975 sonli farmonida, "Hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, xususan, kambag'allikni qisqartirish vazifalari ko'p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq sohalarining raqobatbardorshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o'rinlarini tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir", deb ta'kidlandi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish va rivojlanishiga aloqador vazirlik va idoralar faoliyati uyg'unligini ta'minlashni, har bir mutasaddilarning mas'uliyatini oshirish, mavjud muammo va tusiqlarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishga asoslangan zamonaviy va innovatsion tamoyillarga asoslangan tizimni joriy etishni talab etadi. Ushbu zaruratdan kelib chiqib, yuqoridagi farmonda bir qancha ustuvor vazifalar ham belgilab berilgan.

Ushbu ustuvor vazifalardan biri, "Kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha yaxlit tizim va muvofiqlashtiruvchi davlat organi, me'yoriy-huquqiy baza, mezonlar va baholash uslubiyotini" yaratishga qaratildi. Chunki mamlakatimizda kambag'allikning mavjudligi haqiqat, ammo uni qisqartirish bo'yicha tegishli tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy mexanizmlarning hamon yo'qligi mazkur masalaga alohida ahamiyat berishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2020-yil 27-fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha videosektor yig'ilishida mamlakatimizda kambag'allik darajasiga oid statistik ma'lumotlar keltirildi. "Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 12-



15 foiz yoki 4-5 million aholimiz kambag'al. Bu ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolashga ketadi. Xo'sh bunday oilani o'ziga to'q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bulayapti, degan savol har kuni qiynaydi", deb ta'kidladi. Yuqorida ko'rganimizdek, mamlakatimizda Jahon bankining kambag'allik darajasi bo'yicha minimal normadan kelib chiqadigan bo'lsak, bir kishi bir kunda 19,3 ming so'm o'rta hisobda topishi lozim ekan. Agar oiladi 3 kishi bo'lsa, ularning bir kunlik minimal daromadi 57,9 ming so'mni tashkil qilishi lozim.

Ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz aholisining o'rta hisobda 12-15 foiz aholisi kambag'al yashashadi. Bularning daromadi ta'kidlanganidek, bir kunda 19,3 ming so'mdan kam. Bunda shuni inobatga olish joizki, oilada 5 kishi istiqomat qilsa, ularning ikkitasi ishlaydigan bulsa, o'rta hisobda shu oilaga 96,4 ming so'm kerak bo'ladi. Agar ikki kishi ishlasa, kamida 50,0 ming so'mdan topishiga to'g'ri keladi. Bundan kam bo'ladigan bo'lsa, oilalar qashshoq oilalar safiga kirib koladi.

Mamlakatimiz miqyosida tahlil qiladigan bo'lsak, kambag'allikning yuqori darajasi Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga tug'ri kelmoqda. Bu haqda bir qancha rasmiy xujjatlarda, Prezidentimiz rahbarligida o'tkazilgan video selektorlarda ham ta'kidlanmoqda. O'zbekistondagi kambag'allik haqida ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, "hozirgi kunda kambag'al oilaning shaxsiy kompyuter bilan ta'minlanganligi Respublikadagi o'rtacha oiladan 12 barobarga, shaxsiy mashina bilan - 11 barobarga, konditsioner bilan - 8 barobarga, changyutgich bilan - 4 barobarga, kir yuvish mashinalari bilan - 4 barobarga, muzlatgich bilan - 2 barobarga, televizor va uyali aloqa vositalari bilan - 1,5 barobarga kamligi kuzatiladi". Bugungi globallashtirilgan, raqimli iqtisodiyot hayotimizga jadallik bilan kirib kelayotgan davrda bunday holatga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ammo afsus, bularning borligi haqiqat. Bular kimlar, qayerda va qanday hayot kechirishmoqda. Ushbu holat, albatta o'z-o'zidan bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz rahbariyatining oldida shu kambag'allikka barham berish, imkon qadar ularni ushbu toifadan chiqarish choralari ko'rishi lozim bo'lmoqda. Aynan shu maqsadni amalga oshirish uchun O'zbekiston Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi sifatida qayta tashkil etildi. Ushbu vazirlikka bir qancha yangi vazifalar yuklandi.

Bular jumlasiga makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida kambag'allikni qisqartirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish



lozimligi qayd etilgan. Shu bilan birga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini barqaror ta'minlash uchun har bir xududda tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi ham ustuvorlikni talab qilmoqda. Sanoatning ilg'or sohalarini rivojlantirish va mamlakatimiz miqyosida yagon industrial siyosatni amalga oshirish, bunda davlat ulushi bor korxonalarni isloh qilish, davlatning investitsion siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, infratuzilmani rivojlantirish shaharlashtirish siyosatini amalga oshirish, biznes-muhit va mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash masalalari ham ustuvor vazifa sifatida ushbu vazirlik zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, jahon hamjamiyati bilan Iqtisodiy aloqalarni faollashtirish" masalasi ham shu vazirlik zimmasiga yuklatilgan. Agar ushbu tadbirlarga diqqat bilan e'tibor qilinsa, ushbu vazifalarning barchasidan ko'zlangan pirovard maqsadi, aholini kambag'allikdan chiqarish, farovonligini, yashash darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan.

Shu o'rinda yuqoridagi fikr mulohazalari inobatga olib O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish dasturi loyihasiga ayrim fikr, g'oya va takliflarni bayon qilishni ma'qul deb topdik. Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish muammosi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu muammo mamlakatdagi islohotlarning eng og'ir yo'nalishi ekanligini ta'kidlagan holda uni kamaytirish uchun aholining barcha qatlami birlashishi zarur. Xalqimiz farovonligiga erishish, nochor oilalarga doimiy daromad manbai yaratishda faol ishtirok etish bu boradagi islohotlarni jadallashtirishga yordam beradi.

Bu mas'uliyatli vazifa eng avvalo olimlar zimmasiga tushishini unutmazlik kerak. Fikrimizcha, mazkur yo'nalishda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy izlanishlar olib borishni yo'lga qo'yish vaqti keldi. Bu borada biz jahon tajribasini o'rganishimiz kerak. Shundagina Prezidentimiz ta'kidlagan metodologiyani yaratish va hayotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni kambag'allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli farmoni
2. 2020-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Respublikasi "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlar
3. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions, 712-721.





4. Пардаева, О. М., & Жавманов, Ж. А. (2023). СНИЖЕНИЕ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА САМОЗАНЯТОСТЬ. PEDAGOG, 6(4), 568-574.
5. Жавманов, Ж. А., & Уралов, Б. М. (2023). МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ И ИЗМЕРЕНИЯ БЕДНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. PEDAGOG, 6(11), 237-246.
6. Жавманов, Ж. А., & Муродкулов, Ж. Х. (2023). ФАКТОРЫ БЕДНОСТИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. PEDAGOG, 6(11), 247-254.
7. Abdusamatovich, J. J. (2023). THE POPULATION WISHES FOR POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 6(5), 26-38.
8. Казакова, З. С., & Назарова, М. Ш. (2023). СОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. Научный Фокус, 1(7), 681-686.
9. Васлидинов, Б. В., Саламов, И., & Нурманов, Ш. Х. (2023). МЕВА-САБЗАВОТЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИДА САБЗАВОТ ЕТИШТИРИШ ВА УЛАРНИ РЕНТАБЕЛЛИК ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШ. Научный Фокус, 1(7), 687-699.
10. Иштурдиев, Х. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В АГРОКЛАСТЕРЕ. Научный Фокус, 1(7), 700-708.
11. Pardayeva, O. M. (2023). O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING ISH BILAN TA'MINLANISHDAGI O'RNI. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 8-16.
12. Rabbimovna, R. U., & Farxodovna, E. D. (2023). MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI, ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI. Научный Фокус, 1(7), 709-714.
13. Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKLASTERLAR SOTISH JARAYONLARIDA SEGMENTAR HISOBOTLARNING AHAMIYATI. Научный Фокус, 1(7), 790-795.
14. Muxammadkulovna, Y. D., Rabbimovna, R. U., & Bakhtiyorovna, N. G. (2023). Organization of Teaching Economics at the University. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 18, 30-32.
15. Ulugbek, T. E., & Abdimumin, I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. SEA-Practical Application of Science, (5), 649-654.
16. Eshmuradov, U. T. The methodology of the primary account sales of agricultural products. In CONSTRUCTII IDENTITARE-LITERATURA SI STUDII CULTURALE (pp. 113-118). Editura Vasiliana'98.



17. Eshmuradov, O. T., & Alikulov, A. I. (2022). EVALUATION AND ACCOUNTING OF MATERIAL WORKING CASH IN AGROCLUSTERS AS AN OBJECT OF ACCOUNTING. *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 1), 102-109.
18. Khasanov, B. A., Eshboev, U. T., Hasanova, R. B., Mukumov, Z. A., Alikulov, A. I., & Djumanova, A. B. (2019). Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 28(14), 42-48.
19. Shodieva, G. M., & Pardaeva, O. M. Problems of family entrepreneurship developing and increasing employment and income of the population and reducing poverty. *Gwalior Management Academy*, 23(210), 14.
20. Yorbekova, D., & Raximova, U. (2023). MODERN FOUNDATIONS OF TEACHING ECONOMICS IN UNIVERSITY. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(2 Part 4), 173-176.
21. Tashmurotovich, E. U. (2023). ACCOUNTING AND AUDIT IMPROVEMENT OF READY SALE PRODUCTS IN AGROCLUSTER. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 649-657.
22. Жавманов, Ж. А., Хотамов, А. А. У., & Амонов, С. Т. У. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ОТ БЕДНОСТИ. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 6(5), 193-203.
23. Ulugbek, T. E., & Abdimumin, I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. *SEA-Practical Application of Science*, (5), 649-654.
24. Eshmuradov, U. (2014). The methodology of the primary account sales of agriculture products. In *Construcții identitare. Reverberații ale modelului cultural francez în context european și universal*. (Vol. 2, pp. 113-118).
25. Alikulov, A. I., & Abdushukurov, K. B. (2023). Improving the analysis of financial results in agroclusters. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(9), 310-316.
26. Mamayunusovna, P. O. (2017). Home-based entrepreneurship as a source of revenue generation in the service sector. *International Journal of Innovative Technologies in Economy*, (5 (11)), 16-19.
27. Аликулов, А. И. (2010). Харажатлар ҳисоби ва таҳлилининг назарий ҳамда амалий масалалари. Монография." Фан ва технология», - Тошкент, 196.
28. Ozoda, P., & Shohruh, R. (2023). SOCIO-ECONOMIC CONTENT, CAUSES AND TYPES OF UNEMPLOYMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(6), 306-309.



29. Alikulov, A. I. (2010). Modern trends in development of cotton production and processing chain in Uzbekistan. Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB, 6(3), 75-76.

30. Ozoda, P., & Shohruh, R. (2023). ANALYSIS OF UNEMPLOYMENT RATE ASSESSMENT INDICATORS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 16, 144-147.

31. Ozoda, P., & Shoxrux, R. (2023). DIGITALIZATION OF PUBLIC CATERING IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 15, 62-66.

32. Rasul o'g'li, U. A., & Ibrohim, S. (2023). KLASTERLARDA SABZAVOT YETISHTIRISH, TASHISH, QAYTA ISHLASH, SOTISH JARAYONLARIDA MENEJMENTI. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 6(5), 39-46.